

**MAKTABLARDA PYEDAGOGIK JARAYON SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIYA IMKONIYATLARI**

To‘yev Baxtiyor Zarifovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda pedagogik va psixologik imkoniyatlar tahlil qilingan. Pedagogik faoliyat samaradorligini belgilashda didaktik metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv o‘qitish usullari va shakllar, shuningdek psixologik qo‘llab-quvvatlash va motivatsiyaning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Maqolada psixologik diagnostika va monitoring orqali individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash imkoniyatlari ham yoritilgan. Shuningdek, pedagog va psixologning hamkorligi, ijobiy psixologik muhitni shakllantirish va refleksiv faoliyat orqali ta’lim samaradorligini oshirish mexanizmlari ilmiy asosda tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: maktab, pedagogik jarayon, samaradorlik, pedagogik imkoniyatlar, psixologik imkoniyatlar, innovatsion metodlar, motivatsiya, refleksiya, ta’lim sifatini oshirish, pedagogik hamkorlik.

Kirish. Jahon miqyosida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, ta’lim-tarbiya mazmunini zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish hamda o‘quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda pedagogika va psixologiya fanlarining o‘zaro uyg‘un imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim omil hisoblanadi. Pedagogik jarayon samaradorligi nafaqat ta’lim mazmuni va metodlariga, balki o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi psixologik munosabatlar, motivatsiya, ehtiyoj va individual xususiyatlarni hisobga olish darajasiga ham bog‘liq. Psixologik qonuniyatlarga tayangan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, maktab amaliyotida pedagogik va psixologik yondashuvlarni integratsiya qilish zamonaviy ta’limning muhim shartiga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning asosiy yoʻnalishlari sifatida eʼtirof etilmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlarning toʻliq roʻyobga chiqishi pedagog va psixologik xizmatning hamkorligi, taʼlim muhitining ijobiy psixologik iqlimi va oʻquvchilarning yosh hamda individual xususiyatlarini chuqur oʻrganish bilan bevosita bogʻliq.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida taʼlim tizimi oldiga qoʻyilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida maktab taʼlimi nafaqat bilim berish, balki oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy faollikni shakllantirish vazifasini ham bajarishi lozim. Bu esa pedagogik jarayonni samarali tashkil etishni, uning ilmiy-pedagogik va psixologik asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mavzu metodologiyasi. Maktab amaliyoti shuni koʻrsatmoqdaki, taʼlim samaradorligi faqat metodik taʼminot yoki oʻquv dasturlari bilan emas, balki oʻquvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularda ichki motivatsiyani shakllantirish, ijobiy psixologik muhit yaratish bilan ham bevosita bogʻliq. Pedagogika va psixologiya fanlari integratsiyasi asosida tashkil etilgan taʼlim jarayoni oʻquvchilarning bilish faolligini kuchaytiradi, stress va zoʻriqish holatlarini kamaytiradi hamda taʼlim natijalarini barqarorlashtiradi.

Shu nuqtai nazardan, maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik va psixologiya imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur masala taʼlim sifatini oshirish, raqobatbardosh va barkamol shaxsni tarbiyalash hamda zamonaviy maktab modelini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada shakllangan kompleks ilmiy yoʻnalish hisoblanadi. Ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar taʼlim samaradorligiga taʼsir etuvchi didaktik, metodik va psixologik omillarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Pedagogik jarayonning nazariy asoslari Ya.A. Komenskiyning taʼlimni tabiatga muvofiq tashkil etish gʻoyalarida oʻz ifodasini topgan boʻlsa, keyinchalik K.D. Ushinskiy taʼlimda shaxs omili va tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini asoslab bergan. XX asrda V.V. Davыdov va D.B. Elkoninlar tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi taʼlim nazariyasi oʻquvchilarning bilish faolligini oshirish va nazariy tafakkurini shakllantirish orqali taʼlim samaradorligini taʼminlashga qaratilgan.


Pedagogik texnologiyalar samaradorligi masalasi V.P. Bespalko tadqiqotlarida tizimli yondashuv asosida yoritilgan bo‘lib, u ta‘lim natijalarini kafolatli rejalashtirish va baholash mexanizmlarini ishlab chiqqan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va kompetensiyaviy yondashuv g‘oyalari A.V. Xutorskoy ishlarida keng tahlil qilingan bo‘lib, ular zamonaviy maktab ta‘limi mazmunini yangilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik jihatdan qaralganda, L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi va “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi pedagogik jarayonni individuallashtirish va o‘quvchining potensial imkoniyatlarini ochib berishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. A.N. Leontev va S.L. Rubinshteynlar faoliyat nazariyasi orqali ta‘lim jarayonida motivatsiya va faollikning hal qiluvchi o‘rnini asoslab berganlar. Shuningdek, J. Piaje tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘limni tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ta‘lim samaradorligini oshirishda emotsional intellekt, ijobiy psixologik muhit va pedagogik hamkorlik muhim omil sifatida qayd etilmoqda. Xususan, o‘quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantirish, refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish va stressni boshqarish mexanizmlarini qo‘llash ta‘lim natijalarining barqarorligini ta‘minlaydi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirish faqat didaktik takomillashtirish bilan cheklanmaydi, balki pedagogik va psixologik imkoniyatlarning integratsiyasi asosida amalga oshirilishi lozim. Shu bois, mazkur muammoni kompleks yondashuv asosida o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompleks va integrativ yondashuvga asoslanadi. Ushbu metodologiya pedagogik va psixologik nazariyalarning o‘zaro uyg‘unligi hamda zamonaviy ta‘lim konsepsiyalariga tayanadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi yondashuvlar asos qilib olindi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Maktablarda pyedagogik jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik va psixologiya imkoniyatlari yondashuvlari

Mavzuni yoritishda quyidagi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi:

- pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- qiyosiy-tahliliy usul;
- so‘rovnoma va anketa o‘tkazish;
- pedagogik kuzatuv;
- suhbat va intervyu;
- tajriba-sinov ishlari;
- olingan natijalarni statistik tahlil qilish.

Tadqiqot pedagogik jarayonning ilmiy-nazariy asoslari, rivojlantiruvchi ta‘lim konsepsiyasi, faoliyat nazariyasi, kognitiv rivojlanish nazariyasi hamda motivatsiya va refleksiyaga oid psixologik qarashlarga tayanadi. Pedagogika va psixologiya fanlarining integratsiyasi ta‘lim samaradorligini oshirishning metodologik poydevori sifatida qaraldi.

Ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar maktab amaliyotida pedagogik jarayonni takomillashtirish, ijobiy psixologik muhit yaratish, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish va ta‘lim natijalarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot metodologiyasi pedagogik va psixologik imkoniyatlarni kompleks o‘rganish hamda ularni ta‘lim jarayoniga samarali tatbiq etishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik va psixologiya imkoniyatlari zamonaviy ta‘lim paradigmasi doirasida kompleks,

integrativ va innovatsion yondashuvni talab etadi. Uning ilmiy yangiligi pedagogik va psixologik imkoniyatlarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilish va amaliyotga yo‘naltirilgan modelini ishlab chiqish bilan belgilanadi.

Birinchidan, tadqiqotda pedagogik jarayon samaradorligi faqat didaktik natija (bilim, ko‘nikma, malaka) bilan emas, balki o‘quvchining kognitiv faolligi, emotsional barqarorligi va ichki motivatsiyasi bilan bog‘liq integral ko‘rsatkich sifatida asoslanadi. Bu yondashuv ta‘lim samaradorligini baholash mezonlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, pedagogik va psixologik imkoniyatlarning integratsiyalashgan modeli taklif etiladi. Unda:

- shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim;
- refleksiv faoliyatni rivojlantirish;
- ijobiy psixologik muhitni shakllantirish;
- kognitiv faollikni rag‘batlantiruvchi interaktiv metodlar;
- motivatsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida qaraladi.

Uchinchidan, tadqiqotda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmi sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

- raqamli ta‘lim muhiti va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- psixodiagnostik monitoring orqali o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash;
- formativ baholash va refleksiv tahlilni joriy etish;
- pedagogik kouching va fasilitatsiya elementlarini qo‘llash.

To‘rtinchidan, ilmiy yangilik sifatida pedagogik jarayon samaradorligining ko‘p komponentli modeli ishlab chiqiladi. U kognitiv (bilim va tafakkur), motivatsion (qiziqish va ehtiyoj), emotsional (ijobiy munosabat va psixologik barqarorlik) hamda faoliyatli (amaliy qo‘llash va ijodkorlik) komponentlarni qamrab oladi.

Beshinchidan, ta‘lim samaradorligini oshirishda psixologik xizmat va pedagog faoliyatining hamkorlik mexanizmi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Bu maktabda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish va ta‘lim natijalarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy-innovatsion jihati pedagogik va psixologik imkoniyatlarning uyg‘unligiga asoslangan holda ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishning yangi konseptual modeli va amaliy mexanizmlarini taklif etishi bilan

belgilanadi. Quyida maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning **pedagogik va psixologik** imkoniyatlari qiyosiy tahlil asosida 1-jadval ko‘rinishida keltirildi.

1-jadval.

Pedagogik va psixologik imkoniyatlarning qiyosiy tahlili

Tahlil mezonlari	Pedagogik imkoniyatlar	Psixologik imkoniyatlar	Uyg‘unlashgan natija
Asosiy maqsad	Ta’lim mazmunini samarali o‘zlashtirishni ta’minlash	O‘quvchining ichki imkoniyatlarini rivojlantirish	Bilimli va barqaror rivojlanuvchi shaxsni shakllantirish
Ta’sir ob’ekti	Bilim, ko‘nikma, malaka	Motivatsiya, ehtiyoj, qiziqish, emotsiya	Kompleks ta’lim natijasi
Asosiy mexanizm	Metod, texnologiya, shakl va vositalar	Psixologik qo‘llab-quvvatlash, diagnostika, korreksiya	Individuallashtirilgan ta’lim jarayoni
Samaradorlik omili	Innovatsion metodlar, interaktiv yondashuv	Ijobiy psixologik muhit, emotsional barqarorlik	Yuqori o‘quv faolligi
Baholash usuli	Nazorat, test, formativ va summativ baholash	Psixodiagnostika, kuzatuv, motivatsion tahlil	Xolis va ko‘p qirrali baholash
O‘qituvchi roli	Ta’lim tashkilotchisi va fasilitator	Psixologik qo‘llab-quvvatlovchi, maslahatchi	Hamkorlikdagi pedagog
O‘quvchi roli	Faol ishtirokchi, bilim egallovchi	Shaxsiy rivojlanuvchi sub’ekt	O‘z-o‘zini rivojlantiruvchi shaxs

Kutilgan natija	O'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshishi	Motivatsiya va o'z-o'zini anglashning rivojlanishi	Barqaror ta'lim samaradorligi
-----------------	---	--	-------------------------------

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, pedagogik imkoniyatlar ta'lim jarayonining mazmuniy va texnologik jihatlarini ta'minlasa, psixologik imkoniyatlar uning ichki, shaxsiy va motivatsion mexanizmlarini mustahkamlaydi. Ularning integratsiyasi maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

“Maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik va psixologiya imkoniyatlari” mavzusini tadqiq etish natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim samaradorligi ko'p omilli va integrativ jarayon bo'lib, u faqat didaktik shart-sharoitlar bilan emas, balki o'quvchining psixologik rivojlanish xususiyatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Pedagogik va psixologik imkoniyatlarning o'zaro uyg'unligi ta'lim sifatini oshirishning metodologik asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlovchi asosiy komponentlar - maqsadga yo'naltirilgan mazmun, innovatsion metod va texnologiyalar, refleksiv faoliyat, ijobiy psixologik muhit, barqaror motivatsiya va individual yondashuv ekani ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, ta'lim jarayonida psixodiagnostika va monitoring mexanizmlarini joriy etish orqali o'quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Ilmiy yangilik sifatida pedagogik va psixologik imkoniyatlarning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Ushbu model kognitiv, motivatsion, emotsional va faoliyatli komponentlar uyg'unligiga asoslanadi hamda ta'lim natijalarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchining fasilitatorlik va psixologik qo'llab-quvvatlovchi roli kuchayishi muhim omil sifatida belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, maktablarda pedagogik jarayon samaradorligini oshirish pedagogik innovatsiyalar va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kompleks ravishda joriy etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirish, o'quvchilarning intellektual va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish hamda ta'lim natijalarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Zimnyaya I.A. *Pedagogicheskaya psixologiya*. – Moskva: Logos, 2004.
4. Xutorskoy A.V. *Klyuchevye kompetensii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy paradigmy obrazovaniya* // Narodnoye obrazovaniye. – 2003. – №2.
5. Markova A.K. *Psixologiya professionalizma*. – Moskva: Znaniye, 1996.
6. Bespalko V.P. *Slagayemye pedagogicheskoy texnologii*. – Moskva: Pedagogika, 1989.
7. Davыdov V.V. *Teoriya razvivayuyщego obucheniya*. – Moskva: Intor, 1996.
8. Blum B.S. *Taksonomiya obrazovatel'nyx tseley*. – Moskva: Pedagogika, 1986.
9. Torrance E.P. *Guiding Creative Talent*. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1962.
10. Sternberg R.J. *Successful Intelligence*. – New York: Plume, 1997.
11. Shulman L.S. *Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching* // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15(2).
12. UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers*. – Paris: UNESCO, 2018.
13. L.S. Vygotskiy. *Psixologiya razvitiya cheloveka*. – Moskva: Pedagogika, 1984.
14. A.N. Leontev. *Deyatel'nost. Soznaniye. Lichnost*. – Moskva: Pedagogika, 1975.